

Vaziyat

2024 йил
7 март
№ 10 (951)



Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги нашри

Газета 2004 йил 7 майдан чиқа бошлаган

ТАНТАНАЛИ ТАДБИР

4 март – Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги ташкил этилганлигининг 28 йиллиги муносабати билан вазирлик Марказий аппаратида тантанали байрам тадбири ташкил этилди.

Унда вазирлик Бош бошқарма, бошқарма, мустақил бўлим ва хизматлар раҳбарлари, ҳарбий хизматчи ва хизматчилар, вазирлик тизими фахрийлари ҳамда ОАВ вакиллари иштирок этдилар.

Тадбирда Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазири генерал-майор А.Қўлдошев сўзга чиқиб, ўтган давр мобайнида ФВВ тизимида амалга ошириб келинаётган

ислохотлар ва уларнинг самарали натижаларига тўхталиб ўтди. Ўз навбатида, байрам муносабати билан тадбир иштирокчиларини қизгин муборакбод этди.

Байрам тадбири Тантана доирасида бир гуруҳ ҳарбий хизматчилар ва хизматчиларга “Аъло хизматлари учун” кўкрак нишонлари, эсдалик кўл соатлари ҳамда фахрий ёрлиқлар тантанали топширилди.



Шундан сўнг тадбирга таклиф этилган меҳмонлар – Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокуратураси, Мудофаа, Ички ишлар

вазирликлари ҳамда Миллий гвардия вакиллари ҳам сўзга чиқиб, ФВВ ходимларини касб байрами билан қизгин табрикладилар.

Тадбир якунида ФВВ Академияси бошлиғи, генерал-майор Р.Ҳайдаров, вазирлик Фахрийлар марказий кенгаши раиси, истеъфодаги полковник Э.Икромов сўз олиб, вазирлик тизимида мутахассислар учун яратилаётган зарур шарт-шароит ва имкониятлар, шу жумладан, фахрийларга қаратилаётган эътибор учун улкан миннатдорлик билдирдилар ва



ушбу шодиёна кун муносабати билан барчани муборакбод этдилар.

Тантана якунида ФВВ Академияси оркестрининг хушовоз хонандлари ва созандалари томонидан ижро этилган дилрабо куй-қўшиқлар барчага бирдек манзур бўлиб, даврага янада файз киритди.



МЎЪТАБАР АЁЛ



Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси биносида “Мўътабар аёл” кўкрак нишони совриндорларини тақдирлашга бағишланган тантанали маросим бўлиб ўтди.

Унда Сенатнинг Хотин-қизлар ва гендер тенглик масалалари қўмитаси раиси Малика Қодирхонова ҳамда Оила ва хотин-қизлар қўмитаси раиси ўринбосари Мукаррам Нурматова

“8 март – Халқаро хотин-қизлар куни” байрами муносабати билан совриндорларга “Мўътабар аёл” кўкрак нишонларини тантанали равишда топширди.

Тақдирланганлар орасида ФВВ Академияси ходимаси “Тиллар кафедраси” доценти, педагогика фанлари номзоди Махсума Саидкаримова ҳам бор.

Ҳамкасбимиз М. Саидкаримовани мазкур мукофот билан чин дилдан муборакбод этган ҳолда, келгуси ишларида муваффақиятлар тилаб қоламиз.

“Қамчиқ” махсус қидирув, ёнгин-қутқарув бошқармасида ҳам вазирлик ташкил этилган кун муносабати билан тантанали тадбир ўтказилди.

Тадбирда бошқарма бошлиғи полковник Ҳ.Бобонов сўзга чиқиб, ҳарбий хизматчилар ва хизматчиларни ушбу байрам билан табриклади. Ватанимиз

осойишталиги йўлида машаққатли ва шарафли хизматларида улкан омад тилади. Шунингдек, бошқарма шахсий таркиби ўртасида ўтказилган спорт мусобақалари ғолибларини ҳамда ўз хулқи, меҳнатсеварлиги билан бошқаларга ўрнак бўлиб келаётган бир қатор ходимларни эсдалик совғалари билан тақдирлади.



Саҳифани “Vaziyat” муҳбири Анвар Қобилов ва “Қамчиқ” МҚЁҚБ бош мутахассиси Шаҳзода Абдусатторова тайёрлади.

ЁШЛАР БИЛАН МАНЗИЛЛИ ИШЛАР

Гулистон ҳарбий прокуратураси томонидан Сирдарё вилояти Боёвут туманининг 2-секторидида жойлашган “Маънавият” маҳалласида “Ҳарбий прокурор ва ёшлар” учрашуви ўтказилди.

Шунингдек, “Меҳнат ярмаркаси” ташкил этилиб, тумандаги ва Ширин шаҳридаги мавжуд бўш иш ўринлари ҳақида маълумот берилди. Ёшларнинг 7 нафарига мономарказларда ўқиш, 4 нафарига эса ўзлари танлаган соҳа бўйича ишга кириш учун йўлланмалар тақдим этилди.

Бундан ташқари, мулоқотларда ҳарбий-академик лицейлар, олий ҳарбий таълим муассасалари ва Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академиясига ўқишга кириш тартиби хусусида сўз юритилди.

Шухрат ХОДЖИЕВ,
Гулистон ҳарбий прокурорининг
катта ёрдамчиси, адлия майори.



НАВОЙДА САЙЁР ҚАБУЛ

Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокуратураси, Қуролли Кучлар таркибига кировчи вазирилик ва идоралар ҳамкорлигида Навоий вилоятининг Зарафшон шаҳрида оммавий сайёр қабул ўтказилди.



Унда ҳарбийлар ва ходимлар, уларнинг оила аъзолари ва пенсионерлар қатнашди.

Мазкур тадбир давомида келиб тушган 75 та мурожаатдан 36 таси жойида ижобий ҳал этилиб, 21 таси бўйича ҳуқуқий тушунтириш берилди. Муддат талаб этиладиган 18 та мурожаат назоратга олинган ҳолда мутасадди ташкилотларга юборилди.

Ойбек ШАРИПОВ,
Навоий ҳарбий прокурорининг катта
ёрдамчиси, адлия подполковниги.

Тошкент ҳарбий прокуратураси томонидан Тошкент шаҳар Қўриқлаш бошқармаси ва Чилонзор туман 1-сонли касб-хунар мактаби ҳамкорлигида ушбу мактаб ҳамда Миллий гвардия “Темурбеклар мактаби” ва Мирзо Улуғбек тумани “Геофизика” маҳалласида яшовчи юқори синф ўқувчилари ўртасида спортнинг мини футбол тури бўйича “Ҳарбий прокурор кубоги” учун ҳарбий-ватанпарварлик спорт мусобақаси ўтказилди.

ҲАРБИЙ ПРОКУРОР КУБОГИ



Қизгин беллашувларда биринчи ўринни “Темурбеклар мактаби” ҳарбий-академик лицейи, иккинчи ўринни Чилонзор тумани 1-сонли касб-хунар мактаби ҳамда учинчи ўринни эса “Геофизика” маҳалласи ёшлари забт этишди.

Яқунда Тошкент ҳарбий прокурори Акбар Бобоев томонидан ғолибларга “Ҳарбий прокурор кубоги”, медаль ва махсус совринлар тантанали равишда топширилди.

Алишер ҚУРБОНОВ,
Тошкент ҳарбий прокурорининг
ёрдамчиси, адлия подполковниги.

УЧРАШУВ

Тошкент вилояти Олмалиқ шаҳар ФВ бўлимига бириктирилган ёшлар билан манзилли ишларни ташкиллаштириш ва мувофиқлаштириб бориш бўйича ишчи гуруҳ тузилди ва ҳамкор ташкилотлар, прокуратура ходимлари ва маҳалла ёшлар етакчилари билан 7 та МФЙда истиқомат қилаётган ёшларнинг рўйхати шакллантирилди.

Ёшлар ўртасида спортнинг стол теннис тури бўйича Олмалиқ шаҳар ФВ бўлими бошлиғи кубоги мусобақаси ўтказилди. Қизгин ва кўтаринки руҳда ўтказилган мусобақа ғолибларига қимматбаҳо совғалар ва эсдалик дипломлари топширилди.

Тадбир доирасида “Металлург” маданият саройида “Юлдузли тунлар” спектакли намоиш этилди.

А.ЙЎЛДОШЕВ,
Олмалиқ шаҳар ФВ бўлими бошлиғи,
подполковник.
Э.ЖУМАБОЕВ,
бўлим катта инспектори, катта лейтенант.

ФАОЛИЯТ

Наманган ҳарбий прокуратураси ва вилоят Фавқулодда вазиятлар бошқармаси ҳамкорлигида ўқувчилар билан “Ватан – улуг, бурч – муқаддас!” шиори остида кўргазмали тадбир амалга оширилди.

Дастлаб ёшлар билан мулоқот ўтказилиб, “Икки тил ва бир касб” тамойили асосида ўқув машғулотлари, мактаб шароитидаги халқ ҳунармандчилиги асосида ўқувчиларга ўргатилаётган билим ва кўникмалар билан танишилди.

“Жадид боболаримизнинг ҳаёт йўли ўқувчилар нигоҳида” номли “Заковат” ўйини ҳамда ранг-тасвирлар жилосида ватанпарварликни мадҳ этиш танловлари ҳайъат аъзолари томонидан юқори баҳоланди.

Сўнгра шартли ёнғинни бартараф этиш ва юқори қаватлардан фуқароларни қутқариш, бошқарма қидирув-қутқарув отряди томонидан жисмлар остида, шунингдек, йўл-транспорт ҳодисалари содир бўлганда автомашина ичида қолиб кетган инсонларни қутқариш, биринчи ёрдам кўрсатиш, тиббиёт ходимларига топшириш жараёнлари амалда кўрсатиб берилди.

Яқунда махсус техникалар ва ундаги қутқарув анжомлари намоиш этилди.

Бундан ташқари, Поп туманида оммавий сайёр қабул ўтказилди. Унда 13 та мурожаат тингланб, 3 таси жойида қаноатлантирилди, 7 таси бўйича ҳуқуқий тушунтириш берилди, 3 тасини белгиланган тартибда кўриб чиқиш борасида ҳамкорликдаги чора-тадбирлар белгилаб олинди.

Қурбондурди ПОЛВАННАЗИРОВ,
Наманган ҳарбий прокурорининг ёрдамчиси,
адлия капитани.



СУҲБАТ

Тошкент шаҳар Яшнобод туманида жойлашган 61-умумтаълим мактабининг 11-синф битирувчилари билан ёшларни ватанпарварлик, юксак маънавий-ахлоқий қадриятлар руҳида тарбиялаш, тинчлик ва тотувликни кўз қорачиғидек асраш зарурлиги борасида суҳбатлашилди.

И.БЕКЖАНОВ,
Ўзбекистон Республикаси
Бош вазир котибияти Ҳукумат уйдан
фойдаланиш бошқармасида ва автоҳўжалиги
биноларида ЁХТТЭБ инспектори, капитан.

Жиноятга жазо муқаррар

Ҳар бир шахс меҳнат қилиш, эркин касб танлаш, адолатли меҳнат шароитларида ишлаш ва қонунда кўрсатилган тартибда ишсизликдан ҳимояланиш ҳуқуқига эга. Бироқ, одам савдоси билан боғлиқ жиноятлар бу ҳуқуқнинг кўпол тарзда бузилишига олиб келмоқда.

Сўнгги йилларда дунёда одам савдоси жинояти оқибатида юзга келаётган глобал хавф ортиб бораётгани

бу иллатга қарши жиддий кураш олиб боришни талаб этмоқда. Мамлакатимизда ноқонуний миграция ва одам савдосининг олдини олиш ҳамда унга қарши курашга катта эътибор қаратилмоқда.

Шу ўринда битта мисолни келтирсак. Яқинда судда И.Л. исмли аёлнинг иши кўриб чиқилди. Аниқландики, у 2021 йилда БАА давлати Дубай шаҳрида икки дугонаси билан фоҳишалик билан шуғуллан-

ган. Соғлиғидаги муаммолар туфайли Тошкент шаҳрига қайтиб келган. Шундан кейин ҳам у Дубайдаги дугоналари билан гаплашиб, жирканч ишини давом эттирган. Икки нафар қизни хориж давлатида фоҳишалик билан шуғулланишга кўндиради. Ҳатто хорижга чиқишга кетадиган харажатларни ҳам тўлашади. Бироқ, уларнинг нияти амалга ошмайди. Сабаби, Тошкент халқаро аэропортида Дубай

орзусидаги икки қиз тўхтатилиб, сўраб-суриштирилганда И.Л.нинг сирини фош этилади. Суд судланувчига жазо тайинлашда унинг муқаддам судланмаганлигини, аёл киши эканлигини, оилавий шароитини ҳисобга олди.

Агарда ушбу жиноятнинг олди олинмаганда, чет мамлакатга юборилган икки нафар қиз азоб-уқубатга учраб, хор-зор бўлиши мумкин эди. Пул ишлаш учун жирканч

ишга қўл урган аёл бугун қонуний жазога тортилган.

Одам савдоси — жирканч жиноят, ҳудуд билмайдиган жиноят. Шунинг учун ҳам унинг олдини олиш нафақат ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ва бошқа мутасадди идораларнинг, балки ҳар бир фуқаронинг бурчидир.

Бахтиёр АЛИМОВ,
Жиноят ишлари бўйича
Яшнобод туман судининг
раиси.

ОДАМ САВДОСИ – МУДҲИШ ЖИНОЯТ

8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan Milliy mass-mediani qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi, "Zakovat intellektual klubi" NNT va O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi hamkorligida xotin-qizlar o'rtasida "Zakovat" turnirining Toshkent shahridagi hududiy bosqich o'yini bo'lib o'tdi.

ZAKOVAT



Turnirda mulkchilik shakllaridan qat'i nazar barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar xotin-qizlaridan iborat 104 ta jamoalar bellashdilar. FVV Akademiyasi xotin-qizlaridan iborat "Qutqaruvchilar" jamoasi ham ushbu turnirda faol ishtirok etdi.

Malohat BADALBAYEVA,
FVV Akademiyasi Xotin-qizlar jamoatchilik kengashi a'zosi, podpolkovnik.

E'TIBORSIZLIK OQIBATI

Qoraqalpog'iston Respublikasining Amudaryo tumanidagi "O'rta qal'a" ovul fuqarolar yig'ini, "Tashabbuskor" ko'chasida yashovchi S.Hasanbayevning oshxonasida tabiiy gaz yig'ilib qolishi oqibatida chaqnash sodir bo'lib, uy sohibasi D.O'rayeva 50 foiz hamda farzandi T.Kamalov 12 foiz kuyish tan jarohati olishdi. Tuman FV bo'limi xodimlarining vaqtida qilgan harakatlari natijasida yong'in o'z vaqtida o'chirilib, xonadonning qolgan a'zolari salomatligi saqlanib qolindi.

Bir necha oy avval gaz manbasiga noqonuniy ulangani haqida xodimlar tomonidan ogohlantirilganiga qaramasdan, amaldagi qonunlarga rioya etmagani o'ziga qimmatga tushdi. Ayni kunlarda tuman FV bo'limi xodimlari "tilsiz yov" bilan bog'liq hodisalarning oldini olish maqsadida ovul va mahallalarda bo'lib, gaz, elektr uskunalarini hamda barcha turdagi boshqa isitish moslamalarini qaytadan nazoratdan o'tkazib, isitish moslamalari atrofida yonuvchan va tez alanganuvchi mahsulotlarni saqlamaslik yuzasidan tushuntirish ishlarini olib borishmoqda.

Z.AHMEDOV,
Amudaryo tumani FV bo'limi boshlig'i, kapitan.

TARG'IBOT

Surxondaryo viloyati Boysun tumanidagi mavjud 39 ta mahallalarda yashovchi fuqaro xonadonlari, ko'p qavatli turar-joy binolari, yozgi dam olish maskanlari, bozor hamda savdo majmualari, tadbirkorlik va ishlab chiqarish subyektlari, qurilish obyektlarida yong'in xavfsizligini o'rganish, mavsumni talafotsiz o'tishini ta'minlash maqsadida targ'ibot, tashviqot ishlari olib borilmoqda. Turli ko'rinishdagi bukletlar tarqatilib, yong'in xavfsizligini olish borasida davra suhbatlari o'tkazilib kelinmoqda.

B.MIRZAYEV,
Boysun tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, kapitan.
O.HASANOV, bo'lim yetakchi mutaxassisi.

AMALIY SEMINAR

Toshkent viloyati "Nuroni" jamg'armasi jamiyati va Toshkent viloyati FVB hamkorligida Chirchiq Oliy Tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtida "Xalq va armiya bir jonu bir tandir" mavzusida ma'rifiy-amaliy seminar o'tkazildi. Unda Chirchiq shahar harbiy bilim yurti qo'mondonligi, shahar FV bo'limi yong'in o'chiruvchilari va qutqaruvchilar, MFYlar xodimlari va faollari, 7-, 15-umumta'lim maktabi o'quvchilari hamda Chirchiq shahar HFXO'M tinglovchilari qatnashdilar.

Tadbirda viloyat "Nuroni" jamg'armasi raisi Abdusamad Nosirov so'zga chiqib, yoshlarini harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular qalbida milliy ruhni shakllantirish va qo'llab-quvvatlash, ularga shart-sharoitlar yaratib berish ishlarini amalga oshirilishini ta'kidlab, barcha nuroniylarni faol ishtirok etishga chorladi.

Toshkent viloyati FVB HFXO'M katta o'qituvchisi, Chirchiq shahar "Nuroni" jamg'armasi ken-



gashi a'zosi Husniddin Aglayev o'z ma'ruzasida Yangi O'zbekistondagi bunyodkorlik ishlari, zamonaviy innovatsiyalar kelajakda yoshlarniki ekanligi, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, respublikamiz ravnaqidan g'ururlanish

kabi hissiyotlarni u'yg'otish, harbiy kasbga, shu jumladan, qutqaruvchi kasbi – sharafli kasb ekanligini tushuntirdi. FVV qutqaruvchilarining faoliyati va Turkiyadagi zilzilada ko'rsatgan jasoratlarini haqida to'xtalib o'tdi.

Tadbirning amaliy

qismida o'quvchi-yoshlarga harbiy bilim yurtining texnikalari, asbob-anjomlari ko'rgazmasi tashkil qilindi. Hujjatli filmlar namoyish etildi.

Asror TURSUNOV,
Chirchiq shahar HFXO'M katta o'qituvchisi.

MUNOSIBLAR SARALANDI

"Qamchiq" maxsus qidiruv yong'in-qutqaruv boshqarmasi yong'in-qutqaruv otryadi shaxsiy tarkibi o'rtasida yong'in-qutqaruv amaliy sporti bo'yicha musobaqa tashkil etildi.

Unda ko'p qavatli binoni ishg'ol etish, estafeta, to'siqlar osha yugurish kabi vazifalar bo'yicha sinovlar o'tkazilib, yuqori natijalarni qayd etgan ishtirokchilar saralab olindi.



A.IMONQULOV,
"Qamchiq" MQYOQB yong'in-qutqaruv otryadi smena boshlig'i, leytenant.

XAVFSIZLIK YO'LIDA

Yangiqo'rg'on tumani FV bo'limi tomonidan yong'inlarning oldini olish, ularda insonlar halok bo'lishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida qator chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Xalq xo'jaligining barcha tarmog'ida, shuningdek, sanoat korxonalarini, bilim yurtlari, maktab, bog'cha va aholi turar-joylarida yong'in ofatining oldini olish

uchun targ'ibot-tashviqot o'tkazilmoqda. Fuqarolar bilan uchrashuvlar, suhbatlar uyushtirilib, radio, televidenie va ro'znomalar orqali tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Z.ERALIYEV,
Yangiqo'rg'on tumani FV bo'limi kichik inspektori, katta serjant.

TAHLIL

Andijon shahar FV bo'limi tomonidan 2023-yil davomida aholi turar-joylarini o'rganish jarayonlarida mahallalar va ko'p qavatli turar-joy binolaridagi yong'in o'chirish va maxsus avtomashinalarning yo'llariga o'rnatib olingan 11 ta sun'iy to'siqlar olib tashlanib, avtomashinalarning erkin xarakatlanish imkoniyati yaratildi.

Ilyosbek AZIZOV,
Andijon shahar FV bo'limi boshlig'i, podpolkovnik.



"NKMK" AJ va "Navoiyuran" DK obyektlarida Yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish markazi Navoiy kon-metallurgiya kombinatining Uchquduq sanoat maydonidagi "Sharqiy" koni ishchi-xizmatchilari uchun davra suhbatini tashkil etildi. Ushbu tadbir davomida respublikamizda sodir bo'layotgan yong'inlar va ularning oqibatlari hamda is gazidan zaharlanishning oldini olish to'g'risida tushuntirishlar berildi.

MASHQ



Shuningdek, Karerning chuqurligi 200 metrdan ortiq, uzunligi 4000 metr va eni 2500 metr bo'lgan tarkibida qimmatbaho metallar bo'lgan madanlarni yetkazib beruvchi va ularni tashish va yuklashga mo'ljallangan Belaz rusumli o'zi ag'dargich transport vositalarining yong'inga qarshi holati o'rganib chiqildi. Aniqlangan kamchiliklar yuzasidan ushbu texnikalarga mas'ul bo'lgan va bevosita boshqarishga javobgar ishchi-xizmatchilarga tegishli tartibda tavsiyalar berilib, yong'inning oldini olishni targ'ib qiluvchi targ'ibot materiallari tarqatildi.

So'ng, hududda favqulodda vaziyatlarni tez fursatlarda bartaraf etish bo'yicha o'quv-taktik mashqi o'tkazildi. Unda kombinatning tez tibbiy yordam xizmati, harbiylashtirilgan qo'riqlash xizmati obyektda tashkil etilgan ko'ngilli yong'in o'chirish drujinalari va yong'in xavfsizligi bo'limining mas'ul xodimlari va jangovar ekipajlari ishtirok etishdi. Mashq davomida qutqaruvchilar tomonidan tog'-kon texnikasida jabrlangan fuqaroni xavfsiz joyga olib chiqish hamda tibbiyot xodimlariga topshirish, shuningdek, tog'-kon texnikasida va ta'mirlash binosida to'kilgan moy mahsulotlarida yong'in sodir bo'lgan vaqtdagi harakatlari yana bir bor sinovdan o'tkazildi.

Jahongir SHARIPOV,
Shimoliy kon boshqarmasi obyektlarida YXTTEB, Uchquduq 9-yong'in-qutqaruv qismi boshlig'i, mayor.
Jamshid EGAMOV,
qism boshlig'i o'rinbosari, kapitan.

SEL

Mirzo Ulug'bek tumani FV bo'limi tomonidan sel-suv toshqini xavfi yuzaga kelganda qanday yo'l tutish kerakligi xususida tavsiyanoma ishlab chiqdi.

Sel xavfi to'g'risida xabar eshitgandan so'ng darhol xavfsiz joyga ko'chish harakatlari qilish kerak. Oqimning tez fursatda shakllanishi, uning tezligini hisobga olgan holda, xabar tarqatish va muhofaza tadbirlarini bajarish uchun vaqt juda chegaralanganligini doimo yodda tutish lozim. Sel oqimidan xalos bo'lishning iloji bo'lmasa, balandroq tepalik ustiga, daraxtga yoki biror balandroq moslamalar ustiga chiqish kerak. Odatda sel 3-5 soat vaqt davom etishi mumkin. Sel oqimi o'tgandan so'ng devor va ustunlarning holatini, gaz, elektr va suv ta'minotining sozligini tekshirish zarur.

M.NOSIROV,
Mirzo Ulug'bek tumani FVB inspektori, katta serjant.



HAMKORLIKDA

Toshkent shahar Yangiyoʻl tumani tibbiyot birlashmasi Markaziy koʻptarmoqli poliklinikasida “Odamlar va hayvonlar oʻrtasida quturish kasalligi tarqalishining oldini olish tadbirlarida FVDT xizmatlarining hamkorlikdagi harakatlari” mavzusida maxsus-taktik oʻquv mashgʻuloti yuqori saviyada oʻtkazildi.

S.SAGDULLAYEV,
Yangiyoʻl tumani FV boʻlimi
boʻlinma katta inspektori, mayor.

MASHGʻULOT

Termiz shahar FV boʻlimiga birlashtirilgan shahar 2-sektordagi taʼlim muassasalari oʻquvchi-yoshlari ishtirokida 30 soatlik oʻquv mashgʻuloti oʻtkazildi. Mashgʻulotda oʻquvchi-yoshlarga mutaxassislar tomonidan favqulodda vaziyatlarda toʻgʻri harakatlanish boʻyicha nazariy va amaliy bilimlar berildi. Tadbir yakunida ishtirokchilarga sertifikatlar topshirildi.

J.JOʻRAYEV,
Surxondaryo viloyati FVB axborot
xizmati boshligʻi, kapitan.

TADBIR

Jizzax viloyati FVBda “Yosh qutqaruvchi” musobaqalarini tuman (shahar) va viloyat bosqichlarini oʻtkazishda tegishli vazirlik hamda hududiy tizimlari rahbar-xodimlari ishtirokida seminar oʻtkazildi.

Unda klublar faoliyatini yanada takomillashtirish boʻyicha amalga oshirilayotgan tadbirlar va oʻz yechimini topmayotgan masalalar muhokama etildi.

Iftixor UMAROV,
Jizzax viloyati FVB axborot xizmati
boshligʻi, kapitan.

Ziyovuddin BEKMATOV,
boshqarma boʻlim bosh inspektori,
mayor.

KASBIY VA AMALIY TAYYORGARLIK

Olmalik shahridagi kollej hamda maktablarda “Koʻngilli yongʻin oʻchirish” klublarida shahar FV boʻlimi xodimlari hamda FVV Akademiyasi kursantlari tomonidan kasbiy, amaliy hamda jismoniy tayyorgarliklari oʻrganildi. Mazkur jarayonda amaliy yordamlar koʻrsatilib, bitiruvchi yoshlarga akademiya kursantlari tomonidan ushbu taʼlim dargohida yaratilgan shart-sharoitlar yuzasidan tushunchalar berildi.

Akrom YULDASHEV,
Olmalik shahar FV boʻlimi boshligʻi, podpolkovnik.
Bekzod SHERQULOV,
FVV Akademiyasi 5-bosqich kursanti.



YIGʻILISH

Uchqoʻrgʻon tuman miqyosida “Yosh qutqaruvchi” koʻngillilar klublari faoliyatiga oid seminar hamda “Yosh qutqaruvchi” musobaqasining tuman bosqichlarini oʻtkazish toʻgʻrisida” tumanda joylashgan maktab va maktabgacha taʼlim boʻlimlariga qarashli 47 ta maktab direktori oʻrinbosarlari va “Chaqiriqqa cha yoshlarni tayyorlash” fani oʻqituvchilari – “Yosh qutqaruvchi” koʻngillilar klublari murabbiylari ishtirokida yigʻilish oʻtkazildi.

Ushbu tadbir davomida “Yosh qutqaruvchi” koʻngillilar klublari oʻrtasida tuman bosqichini tashkil etish, oʻtkazilgan tanlov yoshlar uchun yaratilgan sharoitlar va “Yosh qutqaruvchi” koʻngillilar klubi Nizomiga asosan klublar faoliyati 5 ta shartga koʻra baholanishi va musobaqalar tashkil etilishi tushuntirildi. Semnarda yosh qutqaruvchi musobaqasini tashkil etish boʻyicha yoshlarni qiziqtirgan savollarga javob berildi.

Sardor MOʻMINOV,
Uchqoʻrgʻon tumani FV
boʻlimi boʻlinma boshligʻi,
kapitan.

Islomjon MELIBOYEV,
Namangan viloyati FVB
axborot xizmati yetakchi
mutaxassisi.

NAMANGANDA OʻQUV

Namangan viloyati FVB harbiy xizmatchilari, xizmatchilari hamda tizimda faoliyat yuritayotgan ayollarning bandligini taʼminlash, oilaviy byudjetini rivojlantirish hamda ularning huquqiy bilimlarini oshirishga qaratilgan oʻquv mashgʻuloti tashkil etildi.

Mashgʻulot yakunida Monomarkazda boʻlib oʻtgan sayohat davomida ishtirokchilarga 30 dan ortiq kasblar hamda oʻrganishlari uchun yaratilgan sharoitlar va imkoniyatlar bilan yaqindan tanishtirildi.

Harbiy xizmatchilar va xizmatchilarning oila aʼzolari oʻzlarini qiziqtirgan kasblar boʻyicha maʼlumotlar olishdi hamda kelgusida oʻqish istaklari borligini maʼlum qildilar.

Dildora ASHURMATOVA,
Namangan viloyati
FVB tarbiyaviy
ishlar boʻlimi
etakchi mutaxassisi.

KURSANTLAR UCHUN

FVV Akademiyasi 4-batalyon kursantlari “Yongʻinni tergovga qadar tekshiruv va ekspertizasi” fanidan “Aholi va hududlar muhandislik muhofazasi” professor-oʻqituvchilari boshchiligidagi, shuningdek, X.Sulaymonova nomli Sud ekspertiza markazi sud-eksperti Y.Rustemov ish-

tirokida “Mercedes-Benz” rusumli yengil avtotransport vositasida sodir boʻlgan yongʻin yuzasidan tergovga qadar tekshiruv ishlarida ishtirok etdilar.

Avtotransport vositasini koʻzdan kechirish davrida sud-eksperti Y.Rustemov kursantlarga avtomobillarda

yongʻinlarning kelib chiqish sabablarini, yongʻin oʻchogʻining oʻziga xos belgilarini va ularni aniqlash usullarini amalda koʻrsatib berdi.

A.LITYAGA,
FVV Akademiyasi kafedra
boshligʻi, podpolkovnik.

Samarqand viloyati FVBda “Umumtaʼlim va oʻrta maxsus kasb-hunar taʼlimi muassasalarida “Yosh qutqaruvchi” koʻngillilar faoliyatini yanada takomillashtirish hamda samaradorligini oshirish” mavzusida koʻrgazmali seminar oʻtkazildi.



TAVSIYALAR BERILDI

Seminarda 2023-yilda Samarqand viloyatida sodir boʻlgan 1014 ta yongʻinlarning 432 tasi elektr sim va kabellarning qisqa tutashuv, ortiqcha yuklanish, yuqori oʻtkazuvchi qarshilikni ortishi natijasida sodir boʻlganligini inobatga olib, ularning kelib chiqish holatlari boʻyicha oʻtkazilgan tadqiqot ishlarining natijalari xususida aytilib oʻtili.

Elektr sim va kabellarning qisqa tutashuv, ortiqcha yuklanish va yuqori oʻtkazuvchi qarshilikni ortishi natijasida sodir boʻlishi mumkin boʻlgan yongʻinlarning oldini olish borasida profilaktika ishlarini yanada kuchaytirish borasida yoʻnalishlar berildi.

Seminar davomida yongʻin sodir boʻlgan joyga oʻz vaqtida yetib borish va topshirilgan vazifalarni tezkor amalga oshirish maqsadida Yongʻin-texnik markaziga qarashli “FORD TRANZIT” shassisidagi “Harakatlanuvchi yongʻin-texnik laboratoriyasi” avtomobilidagi asbob-anjomlar va ulardan foydalanish tartibini bosqichma-bosqich amalda koʻrsatildi.

Oʻquv-seminar mashgʻuloti ishtirokchilarini qiziqtirgan savollariga aniq javob va sohaga tegishli yoʻnalishlar boʻyicha tavsiyalar berildi.

Sirojiddin SLOVADINOV,
Samarqand viloyati FVB YOTM
boshligʻi, podpolkovnik.

Uchqoʻrgʻon tumanida “Odamlar va hayvonlar oʻrtasida quturish kasalligining tarqalishining oldini olishda FVDT xizmatlari kuch va vositalarining hamkorlikdagi harakatlari” mavzusida koʻrgazmali maxsus-taktik oʻquv mashqi oʻtkazildi.

KOʻRGAZMALI MASHQ



Mashq davomida tegishli xizmatlar rahbariyati, it tutish guruhi, epidemiya va epizotiyaga qarshi kurash guruhlari bilan ularning tayyorgarligi yuzasidan savol-javoblar, suhbatlar boʻldi.

Mashq yakunida esa yoʻl qoʻyilgan kamchiliklar va xatolarni bartaraf etish boʻyicha fikrlar almashildi.

A.ABDULLAYEV,
Namangan viloyati FVB boʻlim
boshligʻi, podpolkovnik.
I.MELIBOYEV,
boshqarma axborot xizmati yetakchi
mutaxassisi.

MASKAN MASHG'ULOTLARI

Jizzax viloyati Zarbdor tumanida kuch tuzilmalari, O'zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi va boshqa mas'ul tashkilotlar ishtirokida 6-umumta'lim maktabida "Xalq va armiya – bir tanu bir jondir!" shiori ostida tadbir tashkil etildi.

Unda qutqaruvchilar qidiruv-qutqaruv ishlarida foydalaniladigan asbob-anjomlarni hamda harbiy xizmatchilar o'zlarining qurol aslahalarini namoyish etdilar.

Tadbir davomida yoshlar o'rtasida sport turlari bo'yicha musobaqa o'tkazildi. Tadbir yakunida faol ishtirok etgan yoshlar esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Kamol TURSUNBOYEV,
Zarbdor tumani FV bo'limi boshlig'i,
kapitan.



YONG'INNING KELIB CHIQUISH SABABLARI

Yong'inning kelib chiqish sabablari turlicha. Ayniqsa, bolalarning o'yinqaroqligi oqibatida sodir bo'lgan yong'in juda xavfli. Shunday ota-onalar ham borki, ular e'tiborsizlik va mas'uliyatsizliklari tufayli farzandlari yosh bo'lishiga qaramay, ularni yolg'iz uyda qoldirib ketishadi, hatto, gugurtlarni ularning qo'li etmaydigan joylarga yashirishni ham unutishadi.

Bunday holda esa bolalar gugurt, elektr maishiy-asboblari va gaz jihozlaridan bema'lol foydalanishlari mumkin. Agar uyda yong'in chiqqudek bo'lsa, dahshatga tushgan bolalar burchaklarga yoki shkaf, karavotlar ostiga berkinib olishlari tabiiy. Natijada esa olov borgan sari kuchayib, o'ta ayanchli tus olishi hech gap emas.

Shu bois ham biz, kattalar hamisha farzandlarimizga yong'indan ehtiyotkorona foydalanish kerakligini uqtirishimiz, gugurt, elektr maishiy asboblari va gaz jihozlarining o'yinchoq, emasligini tushuntirib borishimiz shart.

K.ARIPOV,
Prezident Administratsiyasi
binosida YXTTE 1-bo'linmasi
kichik inspektori, kichik serjant.

MAVSUMGA TAYYORGALIK

Avtomobil yo'lining "Qamchiq" dovoni qismida 18 ta sel, suv toshqini bilan bog'liq xavfli uchastkalar mavjud bo'lib, shundan 7 tasi Ohangaron, 11 tasi esa Pop tumaniga to'g'ri keladi. Ushbu hududlarda sel suvlarini betalafot o'tkazish maqsadida 180 dan ortiq suv o'tkazish inshootlari mavjud.

Temir yo'lining "Angren" va "Temir-yo'lobod" stansiyalari oralig'idagi 26 ta sel, suv toshqinlari bilan bog'liq xavfli uchastkalarda 240 dan ortiq sun'iy suv o'tkazish inshootlari o'rnatilgan.

M.JO'RAYEV,
"Qamchiq" MQYOQB FVPB katta
texnigi, kichik serjant.

Zomin tumani FV bo'limi xodimlari va tuman Yoshlar ishlari agentligi xodimlari hamkorligida Zomin ko'p tarmoqli texnikumida "Qutqaruvchi – sharafli kasb!" mavzusida tadbir o'tkazildi.



S.XOLMURADOV,
Zomin tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, kapitan.

KO'NIKMALAR OSHIRILDI

"Taxiatosh IES" aksiyadorlik jamiyatida Qoraqalpog'iston Respublikasi FVB bilan hamkorlikda o'quv mashqi o'tkazildi.

Ushbu tadbir davomida maxsus tuzilmalar bilan birga vaziyatni to'g'ri baholash, yuzaga kelgan avariya holatlarini qisqa fursatlarda betalafot bartaraf etish, ishchi va xizmatchilarning favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish tartiblari bo'yicha ko'nikmalar hosil qilindi.



I.SABIRBAYEV,
"Taxiatosh IES" AJ OYXTTEB inspektori, kapitan.

XAVFSIZLIK TA'MINLANMOQDA

"Lukoyl-Uzbekistan opereyting kompani" MChJ OYXTTEM Qashqadaryo viloyatidagi obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi harbiy xizmatchilari tomonidan ishchi va xizmatchilar, elektr payvandchilari ishtirokida yong'in xavfsizligi yuzasidan mashg'ulot va yo'riqnomalar, suhbatlar o'tkazilmoqda. Obyektlarning loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan yong'inga qarshi tadbirlarning

to'liq hamda sifatli bajarilishi nazoratga olinib, aniqlangan kamchiliklar bo'yicha obyekt mas'ul xodimlari hamda pudratchi tashkilotlariga Davlat yong'in nazorati organlarining yozma ko'rsatmalari taqdim etilmoqda.

B.MUZAFFAROV,
FVV O'M va OYXTTEB
"LUOK" MChJ OYXTTEM
Qashqadaryo viloyatidagi
OYXTTEB P va NB katta
inspektori, kapitan.

VAZIFALAR BELGILANDI



Toshkent viloyati FVB mas'ul vakili, Qibray tumani FV bo'limi, Yoshlar ishlari Agentligi tuman bo'limi xodimlari hamda mahallalardagi yoshlar yetakchilari bilan hamkorlikda tumandagi og'ir toifaga kiritilgan yoshlarni o'rganish yuzasidan yig'ilish o'tkazildi va asosiy vazifalar belgilab olindi.

J.ABDUQAYUMOV,
Qibray tumani OYXTTEB
boshlig'i o'rinbosari,
podpolkovnik.

TARG'IBOT

Andijon viloyati FVB Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi o'qituvchilari tomonidan Baliqchi tumanidagi "Do'stlik" va "Yurtobod", Asaka tumanining "Qashqar", Oltinko'l tumanining "Erkin", Qo'rg'on tepa tumanining "Yangi qo'rg'on" va Andijon tumanining "Ming o'rik" mahallalarida "Sel va uning kelib chiqish sabablari", "Suv toshqinining turlari" hamda "Ko'chki va o'pirlashlar xavfi yuzaga kelganda to'g'ri harakatlanish qoidalari", "Kuchli shamol vaqtida xavfsizlik choralarini ko'rish", "Uy sharoitida qo'lbola usulda tayyorlangan konserva mahsulotlarini iste'mol qilish orqali kelib chiqadigan "Botulizm kasalligining oldini olish", "Quturish – bedavo dard", "Zilzila sodir bo'lganda aholining to'g'ri harakatlanish qoidalari", "Olov – tilsiz yov", "Yong'inlarning oldini olish va yong'inlar vaqtida aholining to'g'ri harakati" mavzularida suhbatlar va tushuntirish ishlari olib borildi.

N.DADABAYEVA, Andijon viloyati FVB HFXO'M o'qituvchisi.

JARAYON

Yong'inga qarshi tadbirlarida joylarda yong'inlar va boshqa tushdagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish yuzasidan targ'ibot ishlari amalga oshirilmoqda. Mazkur tadbirlarda ishtirokchilarga yong'in va texnika xavfsizligi qoidalari amal qilish, isitish va boshqa moslamalardan xavfsiz foydalanish, bolalarni uyda yolg'iz qoldirmaslik lozimligi tushuntirilmoqda.

Tadbirlar davomida yong'inlar va boshqa tushdagi favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda qo'llaniladigan maxsus texnikalar, qutqaruv asbob-anjomlarining ko'rgazmalari o'tkazilib, namoyish davomida ushbu vositalardan foydalanish tartibi o'rgatilgan holda, ishtirokchilarga zarur tushuncha va tavsiyalar berilmoqda.

Targ'ibot jarayonlarida sohada amalga oshirilayotgan ishlarga oid videolavhalar ham namoyish qilinib, ishtirokchilarga favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanishga oid eslatmalar tarqatildi.

M.SAYIDIY,
Toshkent shahar FVB YOXTTEB
inspektori, kapitan.

YOSHLAR BILAN

Qoraqalpog'iston Respublikasi FVB Qorao'zak tumani FV bo'limi tomonidan tumandagi kasb-hunar maktabi o'quvchilari bilan uchrashuv tashkillashtirildi. Unda bo'lim harbiy xizmatchilari, tuman prokurori, Milliy gvardiya qo'riqlash bo'limi va ichki ishlar organlari xodimlari qatnashdilar.



Ushbu tadbirda O'zbekistonning yosh avlodini ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va huquqiy islohotlarga keng jalb etish, ularga mamlakatimizning buguni va ertangi kuni bilan bog'liq o'ta muhim vazifalar ijrosini ishonib top-

shirish borasidagi tajribasi dunyo hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilayotgani ta'kidlandi.

A.DJALELOV,
Qorao'zak tumani
FV bo'limi P va NB
katta inspektori,
katta leytenant.

PROFILAKTIKA

Toshkent shahar Olmazor tumani "Chig'atoy darvoza" MFYda yong'in xavfsizligini ta'minlash, favqulodda vaziyatlarning oldini olish, sodir bo'lganda oqibatlarini bartaraf qilishga bag'ishlangan profilaktik suhbat va uchrashuvlar tashkil qilinmoqda.

Mazkur tadbirlar davomida ishtirokchilarga yong'in va boshqa tushdagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish, sodir bo'lganda oqibatlarini bartaraf qilish yuzasidan tushuntirishlar berilib, mavzuga doir materiallar tarqatildi.

Rustam ISAYEV,
Toshkent shahar FVB YXTTEB kichik
inspektori, katta serjant.

UNIVERSITETDA...

Jizzax viloyati FVB, Sog'liqni saqlash, Sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmalari va "Hududgazta'minot" AJ mutaxassislar tomonidan Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchi va talabalari o'rtasida is gazi, ovqatdan zaharlanish hamda quturish kasalligining oldini olish bo'yicha seminar o'tkazildi.



Unda isitish vositalaridan to'g'ri foydalanishlari, sifatsiz va muddati o'tgan oziq-ovqat mahsulotlarini, qo'lbola tayyorlangan konservalarni iste'mol qilmaslik hamda sog'lom turmush tarziga amal qilish borasida muhim ma'lumotlar qayd etildi.

Tadbir yakunida ishtirokchilar o'zlarining qiziqirgan savollariga atroflicha javob oldilar.

S.IKMATOV,
Jizzax viloyati FVB xodimi,
I-darajali serjant.
I.OQBO'TAEV,
Jizzax shahar FV bo'limi inspektori,
katta leytenant.

QIRG'OQ MUSTAHKAM BO'LSA...

Uchqo'rg'on va Norin tumani hududidan oqib o'tuvchi Norin daryosining qirg'oqlarini mustahkamlash maqsadida, maxsus texnikalarni jalb etgan holda daryo qirg'oqlariga zaxira toshlar olib borilib, qirg'oqlar mustahkamlash ishlari olib borilgan.

Viloyat FVB boshlig'i polkovnik Bunyod Egamnazarov bahor mavsumida sel-suv oqimlari natijasida qirg'oq mintaqa zonasini sodir bo'lishi mumkin bo'lgan manzillarni o'rganib, amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan kerakli topshiriqlar berdi.

Qahramon SATTAROV,
Namangan viloyati FVB axborot
xizmati boshlig'i, kapitan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Qora'zak tumani FV bo'limida huquq tartibot organlari xodimlari bilan birgalikda "Ochiq eshiklar kuni" tadbiri o'tkazildi.

"OCHIQ ESHIKLAR" KUNI

Tadbir davomida o'quvchi yoshlarga hozirgi vaqtda davlatimiz tomonidan keng imkoniyatlar yaratilayotganligi, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari bo'yicha tushuntirish ishlari olib borildi. Shuningdek, yoshlarni qutqaruvchilik kasbiga jalb etish maqsadida bo'limdagi yong'in-qutqaruv asbob-anjomlari va ularning xizmat olib borish vazifalari haqida ma'lumotlar berildi.

A.AMIRXANOV,
Qora'zak tumani FV bo'limi xodimi,
katta leytenant.




YOSHLAR BILAN UCHRASHUV

Olmalik shahar FV bo'limi tizimiga birlashtirilgan yoshlar bilan manzilli ishlarni tashkillashtirish va muvofiqlashtirib borish bo'yicha ishchi guruh tuzildi va shahar FV bo'limi tizimiga birlashtirilgan 7 ta mahalla fuqarolar yig'inlarida istiqomat qilayotgan yoshlarning ro'yxati shakllantirildi.

Yoshlar o'rtasida sportning stol tennis turi bo'yicha shahar FV bo'limi boshlig'i kubogi musobaqasi o'tkazildi. Musobaqa qizg'in va ko'tarinki ruhda bo'lib, g'oliblarga esdalik sovg'alari va diplomlar topshirildi. Tadbir doirasida ishtirokchilarga shahardagi "Metallurg" madaniyat saroyida "Yulduzli tunlar" spektakli namoyish etildi.

A.YULDASHEV,
Olmalik shahar FV bo'limi
boshlig'i podpolkovnik.
E.JUMABOYEV,
Olmalik shahar FV bo'limi katta
inspektori, katta leytenant.



SUV MANBALARI

"Qashqadaryo Suv ta'minot" MChJ va Mahalla va nuroniylarini qo'llab-quvvatlash boshqarmasi bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni belgilangan muddatlarda bajarilishiga erishish maqsadida yillik "Yo'l haritasi"ni ishlab chiqilishi belgilab olindi.

Yig'ilish davomida viloyat hududidagi yong'inga qarshi suv olgichlari hamda suv hovuzlarini loyhalash, qurish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish, nosoz bo'lgan yong'inga qarshi suv olgichlarni va suv hovuzlarini ta'mirlashga erishish, nosoz holatga kelib qolishining oldini olish hamda ularga o'z vaqtida texnik xizmat ko'rsatish borasida viloyat FVB boshlig'ining birinchi o'rinbosari – Shtab boshlig'i podpolkovnik M.Ostonov tomonidan qat'iy fikrlar bildirildi.

Sunnat AVAZOV,
Qashqadaryo viloyati
FVB tezkor boshqaruv
markazi smena boshlig'i,
podpolkovnik.

YO'QOTILGAN DAQIQALAR

Toshkent shahar FVB xodimlarining aholi tinchligi, xotirjamligi, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli favqulodda vaziyatlar va yong'inlarning oldini olish bo'yicha kuch va vositalari doimiy jangovar shayligi ta'minlangan. Ammo shahrimiz ko'chalarida harakatlantirayotgan ayrim avtotransport boshqaruvdagi fuqarolarimiz tomonidan maxsus jangovor yong'in-qutqaruv texnikalarini o'z vaqtida yuzaga kelgan yong'in joyiga yetib borishlariga imkon qoldirilmaydi. Shu o'rinda Toshkent shahar FVB Sizlardan maxsus jangovor-qutqaruv texnika vositalari harakatlanishiga imkon yaratib berishingizni so'rab qoladi.

X.JO'RABAYEV,
Toshkent shahar FVB Tezkor
bo'lim boshlig'i, podpolkovnik.

Namangan viloyati Pop tumanidagi 2-kasb-hunar maktabi o'yin-gohida 2-sektor hududidagi 9-, 10-, 11-sinf va kasb-hunar maktabi o'quvchilari ishtirokida taktik namoyishlar o'tkazildi.

TAKTIK NAMOIYISH



Tuman FV bo'limi shaxsiy tarkibi va Namangan harbiy prokuraturasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan ushbu tadbirda yoshlarni vatanparvarlik ruhini yanada oshirish, ruhiyatini ko'tarish, yoshlarni harbiy xizmatga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida Mudofaa, Milliy gvardiya tomonidan o'quvchi-yoshlarni o'rtasida arqon tortish, kuch bellashuvi, kamondan o'q otish sport turlari bo'yicha musobaqa o'tkazildi. G'oliblarga esdalik sovg'alari topshirildi.

O'tkirbek TURDALIYEV,
Pop tumani FV bo'limi
boshlig'i,
podpolkovnik.
Islom MELIBOYEV,
Namangan viloyati FVB axborot
xizmati yetakchi mutaxassisi.

"DOLZARB 90 KUNLIK"

Xorazm viloyati Tuproqqal'a tumani hududida hayvonlarni profilaktik emlash bo'yicha "Dolzarb 90 kunlik" tadbiri doirasida "Odamlar va hayvonlar orasida quturish kasalligi tarqalishining oldini olishda FVDT xizmatlarining hamkorlikdagi harakatlari" mavzusida ko'rgazmali seminar va maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

Unga o'ta xavfli yuqumli kasalliklar tarqalishi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish va sodir bo'lganda tegishli FVDT xizmatlari xodimlari va aholini to'g'ri harakat qilishga o'rgatish maqsadida, tegishli FVDT xizmatlari mas'ul xodimlarini jalb qilindi.

Rashidbek KARIMOV,
Tuproqqal'a tumani FV bo'limi
bo'linma boshlig'i, kapitan.

NAZORAT

Sirdaryo viloyati hududidagi ijtimoiy soha obyektlarida yong'inlar va turli hildagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida tungi nazorat-profilaktika tadbirlari davom etmoqda.

Ijtimoiy soha obyektlarida sodir bo'lgan turli xildagi favqulodda vaziyatlar va yong'inlarning kelib chiqish sabablari va vaqtiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning aksariyati tungi vaqtlarga to'g'ri keladi va ko'pgina hollarda arzimagan e'tiborsizlik va xavfsizlik talablariga rioya qilmaslik bu kabi ayanchli holatlarga sababchi bo'ladi.

Husan BERDIYEV,
Sirdaryo tumani FV bo'limi boshlig'i,
mayor.
Akmal ERKINOV,
bo'lim inspektori, leytenant.

Samarqand viloyati Paxtachi tumani FV bo'limi tomonidan tumandagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolajonlar bilan yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilish bo'yicha ko'rgazmali mashg'ulotlar tashkil qilindi.

BOLALAR NIGOHIDA

Shuningdek, 43-umumta'lim maktabida ham o'qituvchi va o'quvchilarga favqulodda vaziyatlar turlari hamda ular sodir bo'lganda to'g'ri harakatlanish tartibi, favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha tushuncha va tavsiyalar berildi. Sohaga oid savol-javoblar o'tkazildi.

Shohruz XUJANOV,
Paxtachi tumani FV bo'limi bo'linma
katta inspektori, katta leytenant.

Маърифат соати

Фасллар келинчаги бўлмиш баҳор – ҳамиша янгилиниш, яшариш фасли бўлиб ҳисобланган. Негаки, айнан баҳор фаслида бутун табиат — гўёки қишки уйқудан уйғонишади. Қир ва адирларда аста-секинлик билан чечаклар ва қизғалдоқлар ниш ура бошлайди. Ҳайвонот олами ҳам анчайин фаоллашади. Бундай ижобий ўзгаришлар ўз ўрнида инсонларга ҳам кўтаринки руҳ бағишлайди. Умумхалқ байрами ҳисобланган Наврўз миллий ўзлгимизнинг ажралмас қисмидир. Наврўзи олам ўлкамизга кириб келиши билан ҳар биримиз ён-атрофимиздаги мавжудотнинг уйғониши, куртаклар ва гул-чечаклар очилиши, еру кўк бағрида юз бераётган ўзгаришлардан, баҳор нафасидан баҳраманд бўламиз, она-табиатнинг узвий ва ажралмас бир қисми эканлигини беихтиёр чуқур ҳис қиламиз.



НАВРЎЗ – ЯНГИЛАНИШ ВА ЯШАРИШ АЙЁМИ

Наврўз бу тинчлик, тотувлик, фаровонлик байрами. Миллати, динидан қатъи назар, шу юртда яшаётган барча миллатлар, элатлар учун бирдек сеvimли айём. Кекса-ю ёш учун бирдек азиз шодиёна! Бу байрам оддий байрам эмас, балки халқимизнинг тарихи, фалсафаси, тушунча тасаввурлари, қадриятларини ўзида мужассам этган, миллат билан улғайиб, миллат билан бирга тараққий этган байрам. Бу файзиёб байрам қадим-қадим замонлардан буён маънавий ҳаётимизнинг кўрк-у зийнати бўлиб келмоқда.

Тарихий манбаларда “Янги кун” маъносини англатгани боис, Осиё мамлакатларининг кўпчилиги Наврўзни “Янги йил” сингари нишонлашади. Ушбу қадим ва боқий байрамнинг нишонланиши ҳақида турли маълумотлар мавжуддир. Хусусан, Абу Райҳон Берунийнинг “Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар”, Маҳмуд Қошғарийнинг “Девону луғотит турк”, Фирдавсийнинг “Шоҳнома”, Умар Хайёмнинг “Наврўзнама” каби асарларида Наврўзни нишонлаш миллоддан аввалги VI–V асрларда бошланганига оид кўплаб маълумотлар ёзиб қолдирилган. Мир Алишер Навоий ҳазратлари ҳам ўз асарларида:

“Ҳар тунинг қадр” ўлубон,

Ҳар кунинг ўлсун Наврўз”,

– деб бежизга бу кунни алоҳида ёд этмаганлар. Бу фикрлар Наврўзнинг қадимдан табиат ва баҳор байрами бўлганини, халқ маънавиятининг ажралмас ва таркибий қисми бўлганини яна бир қарра исботлайди. Бироқ, тарихда Наврўзнинг мазмунини турлича талқин қилиб, баъзилар уни тараққий эттиришга, бошқалар эса уни тақиқлашга ҳаракат қилишди. Грек-Македон истилоси даврларида Наврўз тақиқланиб, подшо саройларида, амалдорлар давраларида расмий байрам ҳисобланмаган. Энг муҳими, бу азалий қадриятнинг бизнинг кунимизгача яшаб келаётгани, Наврўз билан боғлиқ анъана, урф-одат ва маросимларнинг ҳамон элимизнинг ардоғида эканлигининг ўзи энг ишончли ва мўътабар манбадир.

Наврўзнинг қаҳратон қишнинг қировли кунларидан кейин, одамлар баҳорнинг муаттар ҳавосидан тўйиб нафас олаётган паллада нишонланиши замирида ҳам катта маъно мужассамдир. Айниқса, мусаффо осмон узра сахий кўшнинг чарақлаб нур сочиши, қир-у адирлар ям-яшил ўт-ўланлар, бойчечак-чучмома, ло-

лақизғалдоқларга бурканиб, янги кун, баҳорни олқишлаётган қушларнинг ёқимли хониши ҳар қандай инсон руҳиятига кўтаринкилик бағишлаб, меҳнат қилишга, яратувчанлик ишқи билан яшашга чорлайди. Соҳибкор боғбон-у деҳқонлар, кексалар кўк-ламнинг ҳар дақиқасини қадрлаб, ғайрат-шижоат бобида ёшларга ибрат бўлишади. Улар бош бўлиб қадаган ҳар уруғ, ҳар бир ниҳол эртанги кунга барака, дастурхонларга ризқ-рўз, эл-у юртга насиба, фаровон турмуш омили бўлиб унади, кўкка бўй чўзади. Ҳар йили Наврўзнинг янги-дан-янги қирраларини, асрлар бўйи сир-синоат бўлиб келаётган жиҳатларини кашф этиб бораверамиз. Тарих, бу шунчаки рақамлардангина иборат эмас. У ҳар бир халқнинг тушунча ва тасаввурлари, қувончу ташвишлари, орзу умидларини ҳам ифода этади. Айтишимиз мумкинки, мустақиллик даврида Наврўз тамомила янги мазмун ва моҳият кашф этди. Халқимиз ҳаётдан ўзининг муносиб ўрнини эгаллади.

Наврўз ҳақида сўз кетганда, беихтиёр ушбу боқий айёмнинг шоҳ таоми – сумалак ва унинг тайёрланиши билан боғлиқ ривоятлар тилимизда тез-тез айланади. Бу ривоятлар бир ёқадан бош чиқариб меҳнат қилиш, жипслашув, яхши-ёмон кунларда бирга, сабр ва иродали бўлишдек эзгу ғоялар билан суғорилгани билан аҳамиятлидир. Беғубор осмон бағрида баҳорий насимларга қониб, энгил парвоз қилган варраклар, болаларнинг қий-чувлари-ю, шодон кулгулари табиатнинг уйғонишига ранг киритади, гўё. Чиллак, кўғирчоқ, арқон тортиш, тош кўтариш ва бошқа ўйинларнинг завқи эса ўзгача. Атлас ва адрасдан тикилган миллий либослардаги бир-бирдан чиройли қизлар, беқасам тўнлар кийган кўркам йигитларнинг қиёфасида янги куннинг нашидаси уфуриб туради. Байрам маросимларида ижро этилувчи кўшиқларда эса унинг мазмун-моҳияти бетақрор метафора ва ўхшатишлар орқали, тимсолий тарзда ифода этилганлигини кузатамиз. Наврўз билан боғлиқ қарашларнинг асл моҳиятида, унинг ибтидо-сида ёвузлик устидан эзуликнинг, тун устидан куннинг, зулмат устидан ёруғликнинг тантанасини кўрамиз. Бу кураш наврўз билан боғлиқ афсона, ривоят, кўшиқ, мақол ва айтимларнинг қат-қатида турли хил образларда, рамзларда муҳрланиб қолган.

Бугун инсоният техника тараққи-ётида жуда илгарилаб кетди, юксак бир цивилизацияга эришди. Ана шу эврилишларда, ана шу тамаддунда қачонлардир омов ҳайдаб, табиат, кинот ҳақида тафаккур қилган аждодларимизнинг ҳам улкан ҳиссаси борлигини, бу ўлка ҳамиша илм-маърифат, маданият ва тафаккур бешиги бўлиб келганлигини унутмаслигимиз лозим. Аждодларимиз ўзи билан табиат ўртасига чегара қўймаган. Инсонни табиатнинг бир бўлаги, деб қараган. Боши узра порлаб турган ой, кўёш ҳамда юлдузлар, атрофни ўраб турган табобат, набототнинг сирини билишга, ундаги ўзгаришлар инсон қалби ва руҳиятига таъсир этишини англаганлар. Табиатни алқаганлар, самони улуғлаганлар.

Бирлашган Миллатлар Ташкилоти томонидан халқаро байрам деб эътироф этилган Наврўзи олам эзгу анъаналар, қадриятлар байрами, янгилиниш, яшариш фаслининг деб очасидир. Наврўз бу тун билан кун тенг келган кундир. Бобокалонларимиз, айнан мана шу кунни самовий жисмлар ҳаракатида улкан бурилиш ясалади, табиатда жонланиш юз беради деб, уқтириб келишган. Наврўз билан боғлиқ қарашлар бу аждодларимизнинг қадимий билим, улкан ҳаётий тажрибаси эди. Даврлар ўтиши билан бу билим тизимга солиниб, ҳаётларига уйғун, ҳамоҳанг ҳолда эзгу қадрият сифатида авлодларга мерос қолдирилган. Наврўзни қанча кўп ўргансак унинг тарихи шунчалар теран эканини янада кўпроқ англаб бораверамиз. Наврўзга доир барча материаллар йиғилса, тўпланса, уни кенгрок миқёсда қиёсий ўрганиш имконияти юзага келади. Биринчи галда Наврўз ҳақидаги, адабий, тарихий манбалардаги маълумотларни бугунги кунимизга жонли ижро жараёнида яшаб келаётган материаллар билан қиёсий ўрганиш зарурдир. Наврўзнинг олийжаноб қадриятларидан куч-қувват ва илҳом олган халқимиз маҳаллаларда ҳашарлар қилиб, кўчат ва гуллар экиб, янги-янги боғроғлар, сайилгоҳлар яратмоқда. Наврўзни ҳар бир маҳалла ва қишлоқда сайил сифатида байрам қилиниши унинг қадим илдизларини янада мустаҳкамлашга, ёшларни миллий анъаналаримизга садоқат ва умуминсоний қадриятларга ҳурмат руҳида камол топтиришга хизмат қилади. Наврўз байрамида ёлғиз қариялар ва ногиронлиги бўлган шахслар ҳолидан

хабар олиниб, улар моддий ҳамда маънавий қўллаб-қувватланиб, кекса отахону онахонлар, хаста кишилар истиқомат қилаётган хонадонлардан хабар олиниб, совға-саломлар улашилади. Наврўзи оламнинг руҳи ва фалсафасида мужассам бўлган яхшилик ва бағрикенглик, аҳиллик ва ҳамжиҳатлик, атроф-муҳитни кўз қорачиғидек асраб-авайлаш каби олийжаноб ғоялар Янги Ўзбекистонда амалга оширилаётган тарихий ўзгаришларнинг мақсад ва мазмунига тўла ҳамоҳангдир.

Наврўз байрамида қизил, сариқ, яшил, оқ ранглар устунлик қилади. Ранглар инсон ҳаётида шу қадар муҳим ўрин тутадими, қадим мифлардан тортиб, то бугунги кунда ҳам яратилаётган бадий асар намуналарининг барчасида ранглар билан боғлиқ тимсолий талқинларни, ранглар фалсафасини кўрамиз. Наврўз ҳақидаги кўшиқ бўладими, урф-одат, маросим ёки халқ ўйинлари, томоша санъати барчасида рангга алоҳида урғу берилган. Гўёки арзимас бўлиб туюлган ранглар тимсолида, аждодларимизнинг табиатга, юртга, ўз ўтмишига бўлган гўзал бир муносабатини англаймиз. Масалан, оддийгина каштачиликда кўёш рамзи билан боғлиқ тасвирлар алоҳида ўрин эгаллайди. Чунки, ҳаётда, табиат ва инсон муносабатида кўёш жуда муҳим роль ўйнаган. Сўзаналарда фасллар алмашинуви, чиқаётган ва ботаётган кўёш тасвири анъанавий рамзларда муҳрланиб қолган. Шунинг учун ҳам Наврўз билан боғлиқ барча ҳолатларда қизил, сариқ, яшил, оқ ранглар талқини устунлик қилади. Ранглар билан боғлиқ жой номлари, исмлар, тилимиздаги қўшимчаларнинг барчаси нафақат Наврўзнинг мазмун-моҳиятини англашда, балки бадий меросимиз, фольклор ва ёзма адабиёти намуналаридаги ранглар фалсафасини англашимизда яқиндан ёрдам беради.

Минг йиллар давомида маънавий ҳаётимизнинг кўрку зийнати бўлиб келаётган бу ажойиб, хосиятли байрам бугун қалбларимизга яна чексиз қувонч ва завқ бағишламоқда. Наврўз айёми халқимиз учун шарқона янги йилнинг бошланиши, энг қадимий, асл миллий, энг ардоқли байрамдир. Ушбу кун азал шарқ халқларида янгилиниш, яшариш байрами, деҳқончилик мавсумининг бошланиши, янги ҳаёт палласи сифатида кўрилган.

**“Vaziyat” мухбири
Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади.**

Бу қизик

ЯШИЛ ОЛАМ СИНОАТЛАРИ



ДАРАХТЛАР НЕЧА ЙИЛ ЯШАЙДИ?

Эман бир ярим-икки минг йил, оқ кайин ва қарағай 250 йилгача яшаши мумкин. Шимолий Америкада кўплаб кўхна дарахтлар сақланиб қолган. У ерда уч минг йилдан зиёд умр кўрган улкан секвойя дарахтларини ҳам кўриш мумкин. Дарахтнинг ёши бир жойда кўкаргани ёки инсон кўчириб ўтказгани билан ҳам боғлиқ.

Табиий ҳолда ўсадиган дарахтлар инсон ниҳолни парваришлаб, кейинчалик кўчириши натижасида кўкарадиган дарахтлардан анча узоқ яшайди. Бу жўка, эман ва оқ қайинга ҳамда қарағай, тилоғоч ва қорақарағайнинг айрим турларига тегишли. Улар шаҳарлардаги боғларга ўрмондан кўчириб ўтказилади.

Бугунги кунда шаҳарларда бошқа юртлардан келтирилган Секвойя ва Дуглас қарағайи сингари дарахтлар ҳам кўкартирилади. Улар жуда узун ва маҳобатли дарахтлардир. Аммо бу дарахтларнинг тупроқдан намликни шимиб олиши жуда кийин. Бундан ташқари, бу дарахтлар кишки шамолларга ҳам унчалик мослашмаган. Шунинг учун ҳам улар 40 – 50 йилдан ошиқ яшамайди.



НЕГА ҚАРАҒАЙ ДОИМО ЯШИЛ ТУСДА?

Баргларга карбонат ангидрид гази ҳаводан, сув ва минерал тузлар эса тупроқдан келади. Барглардаги хлорофилл Кўёш энергиясини ютади. Хлорофилл дончалари кўёш нурлари таъсирида сув ҳамда карбонат ангидрид газини қандга, глюкозага айлантиради. Япроқлар ишлаб чиқарадиган қанд ўсимликларнинг асосий озукасидир. Япроқлар, шунингдек,

кўп миқдорда сув ҳам ишлаб чиқаради. Дарахт танасидан келадиган сувнинг бир қисмигина озукка ишлаб чиқаришга сарфланади. Унинг аксарияти япроқ юзасидаги говақлар орқали буғланиб кетади.

Қишда дарахтга сув чекланган миқдорда келади. Ер музлаб қолгани сабабли дарахтлар ердан ҳавога буғлаш учун етарли миқдорда сув ололмайди.

Қарағай ва арчанинг барглари ингичка бўлиб, йўғон ғилофли игнани эслатади. Бу сув буғланишига барҳам беради. Барглари эса дарахтларда узоқ йиллар сақланиб қолади. Барглари тўқилиши билан ўрндан янгиси кўкариб чиқади ва дарахт шохлари ҳеч қачон яланғочланиб қолмайди. Шунинг учун ҳам бундай дарахтлар доимий яшил дарахтлар, деб аталади. Шу билан биргаликда кенг баргли, доимий яшил дарахтлар ҳам бор. Масалан, Калифорния дафнаси ва Магнолиянинг қаттиқ ялтйроқ барглари совуқ пайтлар ҳам намликни сақлаб қолишга ёрдам беради.



БАНАН ҚАНДАЙ ЎСАДИ?

Банан дарахтининг ердан ўсиб чиқадиган поясида ёғоч бўлмайди. Поя бир-бирига яқин ва бирининг ичидан иккинчиси ўсиб чиқадиган япроқлардан иборат. Дарахтнинг тепасида жойлашган япроқларнинг ёйилиб кетиши оқибатида банан пальма дарахтига ўхшаб қолади.

Бананнинг пўстлоғи 30 сантиметрлик чуқурчага кўчат сифатида ўтказилади. Чуқурчалар бир-биридан 3,3–5,5 метр узоқликда жойлашган бўлади. Ҳар бир пўстлоқ битта ёки бир нечта куртак ёки картошканикага ўхшаш “кўзчалар”га эга бўлиши лозим. Орадан 3-4 ҳафта ўтгач, улардан янги ниҳол униб чиқади. Фақат энг бақувват ниҳол дарахтга айланади. Ҳар бир ниҳолнинг ўз томир тизими ҳосил бўлади ва ундан янги ўсимликлар ўсиб чиқади. Банан дарахти ниҳоятда парвариш талабдир. Агар ёмғир кам бўлса, унга тез-тез сув куйиб туриш керак. Унинг атрофидаги тупроқ яхшилаб юмшатилиши лозим. Кўчат ўтказилгандан сўнг 9-10 ой ўтиб, гулга киради. Гул узун пояда ўсади, агар у тана-

нинг куйи қисмидан униб чиққан бўлса, тепага ўрлайди, мабодо, тепада гуллаган бўлса, пастга энгашади. Гул пастга қараб ўсса, бананчалар унинг поясида тугилади. Бананлар пастга қараб ўсади. Эндигина гул поясида тугилган бананчалар пастга қараган бўлади, бироқ катталашган сайин тепага бурилади бошлайди.

Бананларни пишмай туриб, яшил ҳолида териб олиш керак. Уларни узиб олган заҳотиёқ ейиш ҳам мумкин, аммо дарахтда пишишига йўл қўйиб бўлмайди. Дарахтда сарғайиб пишган банан ўз мазасини йўқотади.



КЕДР ҚАЕРДА ЎСАДИ?

Кедр қарағайлар оиласига мансуб. Бу оилага яна тилоғоч, оққарағай, арча, қарағайнинг ўзи ва бошқа бир қанча нинабаргли дарахтлар киради. Шимолий Америка ўрмонларига илк қадам қўйган кишилар ёғочни хушбўй барча нинабаргли дарахтларни кедр деб атайверган. Ўрмоншуносликка оид китобларда Сибирь қарағайи ҳам кедр деб аталади. Машҳур кедр ёнғоғи аслида Сибирь қарағайининг ёнғоғидир. Ҳақиқий кедр ёнғоғи ва уруғларини истеъмол қилиб бўлмайди.

Кедр доимий яшил тусдаги кучли дарахт бўлиб, узунлиги 50 метргача боради. Улар минг ва ундан ошиқ йил умр кўради. Унинг тўртта тури бор. Шулардан учтаси Ўрта Ер денгизи мамлакатларида ўсади: атлас кедр Африка шимолида, Ливан кедри Ливан, Туркия ва Сурия тоғларида, Кипр кедри эса Кипр оролида ўсади. Тўртинчи тур Ҳимолай кедри Афғонистон, Покистон ва Ҳиндистон тоғларида ўсади. Кедр ёғочни хашаротлар ва замбуруғлар таъсирига чидамли булгани учун кемасозликда ва турли нарсалар тайёрлашда ишлатилади. Кедр Ҳиндистонда муқаддас дарахт ҳисобланган ва унинг ёғочни тарихий обидалар қурилишида ишлатилади. Кедрнинг барча турлари манзарали бўлгани учун ҳам бутун дунёда кўкаламлаштиришда кенг қўлланилади. Улар Қримда илк марта 1826 йили экилган.

ҚАХВАНING УЗУНЛИГИ НЕЧА МЕТР?

Қаҳва минг йиллардан бери инсон севиб истеъмол қиладиган ичимликлар сирасига киради. У илк марта Арабистондан топилган ва машҳур бўлган, аммо Европага XVI асрда кириб келган.

Қаҳва дарахти Эфиопиядан келиб чиққан, деган фикр бор. У Африка, Осиё, Америка тропиклари ва субтропикларида ўсади. Қаҳванинг дони — уруғи яшил ёки сарик, пишиб етилгач эса қизил тусда бўлади. Улар ковурилгандан сўнггина малла тусга киради.

Қаҳва дарахти кесиб турилмаса, 15 метргача ўсади. Аммо бу унинг мевасини териб олишга имкон бермай кўяди. Қаҳва дони яшил тусдаги кўракда етилади. Пишиши билан қизил тусга киради. Ҳар бир кўракда икки бўлакдан иборат дон бор ва у эт билан қопланган бўлади.

Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади



Vaziyat

газетаси

Муассис:
Ўзбекистон
Республикаси
Фавқуллодда
вазирлар
вазирлиги

Бош муҳаррир в.б.
Азамат СҮЮНОВ

Газета таҳририят
компьютерхонасида
саҳифаланди.

Газета ҳар ҳафтанинг
пайшанба куни чиқади.
Топшириш вақти – 15.00
Топширилди – 15.00

Навбатчи:
А.ҚОБИЛОВ

Таҳририятга юборилган
материаллар қайтарилмайди
ва изоҳ берилмайди.
Муаллифлар фикри таҳририят
нуқтаи назаридан фарқланиши
мумкин.

Газетадан олинган материаллар
манбаси кўрсатилиши шарт.

Газета Ўзбекистон Матбуот ва
ахборот агентлигида 2007 йил
3 январда 0096-сон рақам
билан рўйхатга олинган
ISSN 2091-5292

Таҳририят манзили:
100084, Тошкент шаҳри,
Кичик ҳалқа йўли, 4-уй.
Тел.: (71) 231-96-71
Телеграмм: (90) 016-87-67

Индекс:
якка обуначилар ва
ташқиротлар учун – 382

Газета "BUSINESS PRINT DESIGN"
босмахонасида босилди.
Манзил: Тошкент шаҳри,
Сўғалли ота кўчаси, 5-уй.
Буюртма №
Бичими: А3, ҳажми: 2,0 б.т.
Адади – 6600 нусха

